

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMY  
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**USMONOVA KUMUSH BAXODIR QIZI**

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA REFLEKSIVLIK  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Usmonova Kumush Baxodir qizi**

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida reflektivlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi..... 3

**Усмонова Кумуш Баходир кизи**

Методика развития рефлексивных компетенций у будущих преподавателей английского языка ..... 25

**Usmonova Kumush Bakhodir kizi**

Methodology for developing reflexive competencies in future English language teachers ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 51

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**USMONOVA KUMUSH BAXODIR QIZI**

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA REFLEKSIVLIK  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/Ped7564 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasi (www.samdchti.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Maxmudova Muyassar Maxmudovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Abdullayeva Lola Toxirovna**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Olimov Shirinboy Sharofovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «15» oktyabr soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62209 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43- uy. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «25» sentyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil «25» sentyabr daqi 35 raqamli reyestr bayonnomasi)



**N.Z.Nasrullayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**O'.O'.Qo'ldoshov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash korgbi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**A.D.Kiselyov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahondagi globallashtirish jarayonida ingliz tili ta'lim va fan rivojining muhim omiliga aylandi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilaridan esa zamonaviy yondashuv va metodlarga tayyorlik talab qilinmoqda. Pedagogik faoliyatda refleksivlik kompetensiyasi kasbiy mahoratning ajralmas qismidir. Refleksivlik o'qituvchiga o'z darslarini tahlil qilish, xatolarni anglash va bartaraf etishga yordam beradi. O'zbekiston ta'lim tizimida yangicha fikrlaydigan malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb masaladir. Refleksivlikni rivojlantirish metodikasi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi. Mazkur metodika ta'lim jarayonida ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi. Shu bois, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksivlik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda dolzarbdir.

Dunyoda ta'lim tizimidagi yangiliklar pedagog kasbiga yangicha qarashni taqozo etmoqda. Bugun o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning shaxsiy rivojini qo'llab-quvvatlovchi sifatida ko'rilmoqda. Ingliz tili esa xalqaro muloqotning asosiy vositasiga aylangani tufayli unga bo'lgan talab yanada oshdi. Shuning uchun bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida til bilimidan tashqari boshqa ko'nikmalar ham zarurdir. Refleksivlik kompetensiyasi ularning kasbiy mahoratini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu ko'nikma o'qituvchiga o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish imkonini beradi. Natijada ta'lim samaradorligi ortib, o'qituvchi kasbiy jihatdan rivojlanadi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham yangicha fikrlovchi, refleksiv o'qituvchilarga ehtiyoj sezilmoqda. Shu sababli, mazkur mavzuni o'rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu yo'nalishning dolzarbligini yanada oshirdi. "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi"<sup>1</sup> hamda "Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari"<sup>2</sup>da pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yuksaltirish, ularning refleksiv tafakkurini rivojlantirish va zamonaviy didaktik yondashuvlardan samarali foydalanishni rag'batlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi bugungi kunda nafaqat pedagogika sohasida dolzarb ilmiy muammo, balki mamlakat ta'lim sifatini oshirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar hamda ishlab chiqiladigan metodik tavsiyalar pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PF-5106-son, 2019-yil "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil PF – 6079-son "Raqqamli

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/docs/6079561>

O‘zbekiston – 30” dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2012-yil “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son, 2017-yil “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2020-yil PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llarida” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajariladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid masalalar bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda chet tili o‘qitish metodikasi, kompetensiyalarni til ta’limida samarali qo‘llashning metodologik asoslari hamda refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha J.Jalolov, Sh.Ashurov, I.Tuxtasinov, K.Riskulova, F.Alimov, M.Nazarov, B.Qulmatov, M.Gulyamova<sup>3</sup>, N.S.To‘xtayeva, M.A.Karimova, Sh.M.Yo‘ldoshev<sup>4</sup>, M.Saidova, A.Xamraeva, D.Umarova<sup>5</sup>, A.Musayeva<sup>6</sup> va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Xorijiy davlatlarda, xususan, G‘arb ta’lim tizimlarida refleksivlik tushunchasi atroflicha o‘rganilgan va uning chet tili o‘qituvchilari tayyorlash jarayonida qo‘llanilishiga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, S.Brukfeld, J.Vella, L.Finlay, A.Kvortrup, F.Kortagen, Patrik Vallin va Tom Adavi, P.O’Shea,

---

<sup>3</sup> Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b; Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English language teaching methodology: Theory and practice. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015; Nazarov M. Role-playing as a method of teaching a foreign language // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – Vol. 3, TSTU Conference 1. – P. B 561–565.

<sup>4</sup> To‘xtayeva N.S., Karimova M.A., Yo‘ldoshev Sh.M. Рефлексивлик компетенцияларини ривожлантиришнинг методологик асослари // Ўзбекистон педагогика журнали. – 2019. – № 3(25). – B. 45-53.

<sup>5</sup> Saidova M.A. Ways to evaluate the professional competence of teachers and its formation // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2021. – T. 1, Maxsus son. 2. – B. 168-172; Umarova Z. talabalarining bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etishning zaruriyati // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – T. 4, № 3. – B. 626-630.

<sup>6</sup> Musaeva A.A. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2025. – 142 b.

M.V.Griggs, A.D.Shon <sup>7</sup> kabi olimlarning ishlarida ushbu mavzu tadqiq qilinganligini ko‘rish mumkin.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan N.G.Alekseev, V.I.Baydenko, A.A.Bizyaeva, V.Vasilyev, E.S.Dunaeva, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, V.A.Metaeva, S.L.Rubinshteyn <sup>8</sup> kabilar ishlarida ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatlarini refleksivlik kompetensiyalaridan foydalanish orqali tashkil etish masalalari tadqiq qilingan.

Yuqorida keltirilgan tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda o‘rta va oliy ta‘lim tashkilotlarida xorijiy til ta‘limi kontekstida talabalarining kommunikativ kompetensiyasini oshirish, lingvistik ko‘nikmalarini takomillashtirish zaruriyati ta‘kidlangan. Biroq, aynan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar to‘liq olib borilmagan. Shu o‘rinda aynan filologiya ta‘lim yo‘nalishi talabalarida refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarurati mavjud.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Samarqand davlat universitetida №SRFil-01 “Zamonaviy tilshunoslik masalalari va xorijiy tillarga o‘qitish uslubi” amaliy tadqiqot rejalari muvofiq bajariladi.

**Tadqiqotning maqsadi** bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, refleksivlik

---

<sup>7</sup> Brookfield S. D. *Becoming a Critically Reflective Teacher*. – San Francisco: Jossey-Bass, 1995. – 275 p; Vella J. *Learning to Listen, Learning to Teach: The Power of Dialogue in Educating Adults*. – 2nd ed. – San Francisco: Jossey-Bass, 2008. – 270 p; Finlay L. *Reflecting on Reflective Practice*. – London: Palgrave Macmillan, 2008. – 32 p; Qvortrup A., Keiding T.B. *Portfolio Assessment: Production and Reduction of Complexity // Assessment and Evaluation in Higher Education*. – 2015. – Vol. 40, No. 3. – P. 407-419; Korthagen F. *Reflection on Reflection // The Pedagogy of Realistic Teacher Education*. – 2001. – P. 51-68; Wallin P., Adawi T. *The Reflective Diary as a Method for the Formative Assessment of Self-Regulated Learning // European Journal of Engineering Learning Education*.; O’Shea P., Kearney M. *A Cognitive Strategy Scaffolding Approach to Facilitating Reflection in Engineering Students // Australasian Journal of Engineering Education*. – 2016. – Vol. 21, № 1. – P. 17-26; Griggs V., Holden R., Lawless A., Rae J. *From Reflective Learning to Reflective Practice: Assessing Transfer // Studies in Higher Education*. – 2018. – Vol. 43, № 7. – P. 1172-1183; Schön D.A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. – New York : Basic Books, 1983.

<sup>8</sup> Алексеев Н.Г. Проектирование и рефлексивное мышление // Развитие личности. – 2002. – № 2. – С. 85-103; Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования (методологические и методические вопросы). – М. : Научно-исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. – 114 с; Бизяева А.А. Психология думающего учителя. Педагогическая рефлексия. – Псков, 2004. – С. 60-62; Васильев В. Рефлексия – виды и механизмы ее реализации // В кн. : Книга о размышлении. – Пловдив : Университетское издательство Паисия Хилендарского, 2018. – С. 26-30; Дунаева Е.С. Современные тенденции подготовки будущих педагогов дектологов к профессиональной деятельности.//Сб. материалов II-ой Межвузовской методологической конференции магистрантов и аспирантов. В двух частях. Ч. 1. Биробиджан: Изд-во ФГБОУ ВПО «ПГУ им. Шолом-Алейхема», 2012. 117-122 с; Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник. – М.: Логос, 2001. – 250 с; Кузьмина Н.В. Профессионализм преподавания. – СПб.: Ленинградский государственный педагогический институт, 1993. – 202 с.; Метаева В.А. Рефлексия как метакомпетентность // Педагогика. – 2006. – № 3. – С. 57-61; Рубинштейн С.Л. Базовая общественная психология. - СПб.: Издательство «Питер», 2000. – С. 187-685.

tushunchasining mohiyati, tarkibiy komponentlari va ularning ingliz tilini o‘qitish jarayonidagi funksional ahamiyatini tizimli ravishda tahlil qilish;

refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini va metodikasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va refleksiv yondashuv asosida takomillashtirish;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda o‘qitish jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash;

refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining samaradorligini tajribaviy-eksperimental yo‘l bilan tekshirish hamda amaliyotga joriy etish va natijalarni tahlil qilish orqali metodikaning samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** oliy ta’limdagi ingliz tili o‘quv mashg‘ulotlarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish va fleshmoblardan foydalanish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Alfraganus universiteti, Urganch davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutidan jami 398 nafar respondent talabalar jalb etildi.

**Tadqiqotning predmetini** bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, shakli, texnologiyasi va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ushbu tadqiqotda uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi pedagogik va ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, tahlil qilish, prognostik (umumlashtirish, baholash), deskriptiv, kuzatish, sotsiometrik (anketa, test); shuningdek, monitoring, pedagogik tashxis, tajriba-sinov; pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, matematik-statistik tahlil; natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining refleksivlik kompetensiyalarining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi hamda uning ingliz tilini o‘qitish jarayonidagi didaktik va metodik vazifalari tizimli tahlil asosida ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

internet-ijtimoiylashuv sharoitida ta’limiy muhitini loyihalash maqsadida refleksivlik kompetensiya tuzilmasining tashkiliy va funksional komponentlari mazmuni, mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlashtirilib, “self-video reflection”, “raqamli refleksiv portfel” texnologiyalari hamda “refleksiv kundalik” va “Maqsad–Amal–Natija” tahlili kabi metodlarni integratsiyalash orqali nazariy-metodologik model takomillashtirilgan;

refleksivlik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik va didaktik shart-sharoitlari tahlil qilinib, o‘qitish jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etish uchun refleksiv-dialogik mashqlar tizimi hamda raqamli refleksiv portfelga asoslangan metodik yondashuv yaratilgan;

ingliz tili ta’limi jarayonida talabalarning refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, raqamli ta’lim platformalari (Kahoot, Mentimeter, Padlet, Zoom, MS Teams, Google Meet) asosida autentik amaliy topshiriqlar tizimi, axborot-didaktik ta’minot va ilmiy-metodik tavsiyalar integratsiyasiga tayangan innovatsion didaktik yondashuv ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati asoslab berilgan holda refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi va axborot-didaktik ta'minotini takomillashtirish uchun "*Refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish asoslari*" nomli dasturi ishlab chiqilgan;

refleksivlik kompetensiyalari tuzilmasining tashkiliy va funksional komponentlari mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilib, refleksiv kompetentlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish usullari aniqlangan va pedagogik jarayon modeli takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalarning kommunikativ, kasbiy va lingvistik kompetentligi, nutq ko'nikmalari, zamonaviy usullar va dinamik til o'rganish metodikalari integratsiyasi, kompetensiyaviy va refleksiv yondashuv tamoyillari hamda mexanizmlari o'rganilib, ta'lim jarayoni amaliyotiga tadbiiq etilgan;

ingliz tili kontekstida zamonaviy yondashuvlar asosida innovatsion texnologiyalardan, interfaol, pedagogik va didaktik usullardan foydalangan holda talabalarning refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun autentik materiallar vositasida mashqlar tizimi hamda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan ta'lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalari statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuniga ko'ra izohlanadi. Tadqiqot muammosiga tizimli va izchil yondashuv, tadqiqot ishi bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik tadqiqotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga mosligi, zamonaviy va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini, ijtimoiy moslashuv ko'nikmasini rivojlantirish metodikalari tadqiq etilganligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va reprezentativligi ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda dars jarayoniga zamonaviy texnologiyalar, interfaol yondashuvlarni integratsiyalashtirish va unga mos keladigan kompetensiyaviy va refleksiv yondashuv keyingi yillarda fanda tobora keng tarqalganligi, zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish texnologiyalari va metodikalariga oid masalalarining mualliflik nuqtai nazaridan tahlil qilinganligi, talabalarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik, didaktik imkoniyatlari, tamoyillari, bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlarining aniqlanganligi, zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarining takomillashtirilganligi, metodologik yondashuvlar mohiyatining

ochib berilganligi hamda ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmun-mohiyatini takomillashtirishga xizmat qilishi, tadqiqot natijasida aniqlangan tamoyillar, mezonlar, texnologiyalar, ishlab chiqilgan metodik ta'minot, pedagogik jarayon modeli va mashg'ulotlar to'plami ta'lim jarayoniga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalardan, kompetensiyaviy va refleksiv yondashuvlar asosida talabalarning refleksivlik kompetensiyalarini oshirish texnologiyalaridan pedagogik fanlar mazmunini takomillashtirishda, malaka oshirish kurslarida hamda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlikni oshirish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz tili kontekstida filologiya yo'nalishi talabalarining refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining refleksivlik kompetensiyalarining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi hamda uning ingliz tilini o'qitish jarayonidagi didaktik va metodik vazifalari tizimli tahlil asosida ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilganligiga oid taklif va tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSH elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSH davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" xalqaro loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (2025-yil 18-aprel 1119/02 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning refleksivlik tushunchasi, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati asoslab berilgan holda mazkur jarayonning psixologik-pedagogik xususiyatlari aniqlashtirilib, talabalarning refleksiv ko'nikmalari, kommunikativ kompetentligini oshirishga oid bilimlari rivojlantirilgan (2025-yil 18-aprel 1119/02 sonli ma'lumotnomasi);

internet-ijtimoiylashuv sharoitida ta'limiy muhitini loyihalash maqsadida refleksivlik kompetensiya tuzilmasining tashkiliy va funksional komponentlari mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilib, "self-video reflection", "raqamli refleksiv portfel" texnologiyalari hamda "refleksiv kundalik" va "Maqsad–Amal–Natija" tahlili kabi metodlarni integratsiyalash orqali nazariy-metodologik model takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan "Samarqand viloyati teleradiokanali" DM teleradiodasturlarini tayyorlashda manba sifatida qabul qilingan. Dissertatsiya ilmiy xuloslaridan 2025-yil 6-may kuni "Samarqand" radiokanalida e'fira uzatilgan "Kun mavzusi" nomli eshittirishi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. Natijada, chet tili talabalarning refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli refleksiv va kompetensiyaviy yondashuv asosida kommunikativlik va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik jarayon modeli takomillashtirilgan (2025-yil 6-may 118-sonli ma'lumotnomasi);

refleksivlik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik va didaktik shart-sharoitlari tahlil qilinib, o‘qitish jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etish uchun refleksiv-dialogik mashqlar tizimi hamda raqamli refleksiv portfelga asoslangan metodik yondashuv yaratilib, ta’lim jarayoni amaliyotiga tadbiiq etishga oid ma’lumotlar Qarshi davlat universitetida 2021-2-23- yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 “Reinforcing English Language competence Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan. Natijada, ushbu loyiha doirasida yaratilgan ishlanmalar ingliz tili ta’limi jarayonida talabalarning refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion axborot-didaktik resurslar va metodik ta’minotni takomillashtirishga hamda mazmunan boyitishga sezilarli hissa qo’shdi (2025-yil 19-aprel 04/1480-sonli ma’lumotnomasi);

ingliz tili ta’limi jarayonida talabalarning refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan, raqamli ta’lim platformalari (Kahoot, Mentimeter, Padlet, Zoom, MS Teams, Google Meet) asosida autentik amaliy topshiriqlar tizimi, axborot-didaktik ta’minot va ilmiy-metodik tavsiyalar integratsiyasiga tayangan innovatsion didaktik yondashuv ishlab chiqilishiga oid ma’lumotlar Qarshi davlat universitetida 2021-2-23-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 “Reinforcing English Language competence Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan. Natijada, bu raqamli ta’lim platformalari asosida talabalarning refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirishning axborot-didaktik ta’minotini boyitishga xizmat qilgan (2025-yil 19-aprel 04/1480-sonli ma’lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma’qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 155 sahifani tashkil qiladi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obykti aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko’rsatilgan.

Dissertatsiyaning *“Bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari”* deb nomlangan

birinchi bobida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik muammolari, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati tahlil qilingan.

**Refleksivlik kompetensiyalari** – bu pedagog shaxsining kasbiy sifati hisoblanib, o'qituvchiga kasbiy faoliyatga ijodiy yondashishga, talabalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonlarini samarali amalga oshirishga, hamda o'zini o'zi kasbiy jihatdan takomillashtirishga imkon beradi. Refleksivlik kompetensiyalari o'qituvchining kasbiy professionalligini hamda pedagogik mahoratini oshirishning zaruriy shartidir.

O'qituvchilarning oliy ta'limda o'qish jarayonida egallagan psixologik-pedagogik bilimlari ularning bevosita ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ishlar bilan shug'ullanishi, kasbiy mahorat cho'qqilariga chiqishi va martaba zinapoyasidan ko'tarilishi imkonini berishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchilar talabalar bilan ishlashda ularga o'z faoliyati tajribasini yetkazishlari, o'z qobiliyatlariga ishonchni shakllantirishlari, o'zaro munosabatlarni va muloqotni to'g'ri tashkil etishga o'rgatishlari kerak. S.L.Rubinshteynga ko'ra, o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari hamda "o'qituvchining refleksivlik kompetensiyasi" o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, olimning fikriga ko'ra, ikkita hodisaning o'zaro bog'liqligidir (bir-birini to'ldirish, birga mavjudlik); ya'nikim, talabaning rivojlanishi o'qituvchining doimiy o'zini o'zi rivojlantirishini nazarda tutadi, hamda bu talabaning rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. Pedagogning (o'ziga nisbatan) ayni vaqtdagi va kelajakdagi rivojlanishining analitik pozitsiyasi pedagogik kompetensiya, ya'ni o'z-o'zini o'qitish va rivojlantirishning muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar (islohotlar) nuqtai nazaridan ushbu komponentlar ta'lim sohasi vakillari uchun ustun hisoblanadi, chunki ular yangi madaniyat va ta'lim sifatini yo'lga qo'yishga yordam beradi<sup>9</sup>.

Zamonaviy ta'lim bizda chet tili o'qituvchilarida refleksivlik kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradigan faoliyat turlari va ularni o'tkazish usullarini o'quv jarayoniga kiritish imkoniyatini topish zaruriyatini uyg'otadi. Bir so'z bilan aytganda, boshqa turdagi kompetensiyalarni shakllantirish jarayoniga uyg'un ravishda ushbu kompetensiyaga zamonaviy ingliz tili o'qituvchisi shubhasiz ega bo'lishi kerak.

Chet tili o'qituvchisi pedagogik faktlar va jarayonlarni yanada chuqurroq anglab, ular orasidagi sabab va natija bog'liqligini tushunishi, shuningdek, pedagogik hodisalarning mohiyatiga kirib borish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi kompetensiyani rivojlantirishi lozim. Bu darsni o'tkazishning turli shakllari, texnikasi va usullari bilan birgalikda ta'lim sifatini oshirishda ijobiy rol o'ynashi kerak. Qo'llaniladigan har bir o'quv yoki ilmiy material pedagogik amaliyotga mos kelishi va o'ziga xos mavzu va tushunchalarda nazariy jihatdan tushunarli bo'lishi kerak. Uslubiy mazmun shunday taqdim etilishi kerakki, unda uning tarkibiy qismlari va ilmiy asoslari aloqasi paydo bo'lishi lozim.

---

<sup>9</sup>Рубинштейн С.Л. Базовая общественная психология. – СПб.: Издательство «Питер», 2000. – С. 187–685.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: o'quv jarayonini kuzatish; talabalar va o'qituvchilarni sinovdan o'tkazish va so'roq qilish; olingan ma'lumotlarni solishtirish, tahlil qilish va sintez qilish. Olib borilgan nazariy tadqiqotlar va amaliy uslublar kelajakdagi kasbiy ta'lim jarayoniga tanlangan kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mos kelishini tasdiqlaydi. Refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy sharti o'qituvchining o'z xatti-harakatlarini kuzatishi va tahlil qilishi, hamda bu xatti-harakatlarning oqibatlarini tushunish qobiliyatiga ega bo'lishidir. Bunda u talabalar tomonidan o'ziga qo'yilayotgan talablarga munosib baho bera oladi, psixologik to'siq paydo bo'lishining oldini oladi, xatti-harakati va faoliyatini to'g'irlaydi<sup>10</sup>.

Refleksivlik kompetensiyasi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining shaxsiyatini to'g'ridan-to'g'ri kasbiy o'zini o'zi anglashning tarkibiy qismi sifatida quyidagi **vazifalarni** bajaradi (1-jadvalga qarang):

**1-jadval.**

**Chet tili o'qitish jarayonida refleksivlik kompetensiyalarining vazifalari**

Vazifalar	Mexanizmlar	Amaliyotgan tadbqiq etish usullari
1. Chet tili darslaridagi metodik yondashuvlarni tahlil qilish va baholash	Refleksiv kundalik yuritish	Har bir darsdan so'ng o'z dars uslubini yozma tahlil qilish
2. Talabalarning til o'rganishga oid ehtiyoj va qiyinchiliklarini aniqlash	Talabalardan fikr-mulohaza olish (feedback)	So'rovnomalar, mini-intervyular, til o'rganishdagi muammolarni aniqlash
3. Shaxsiy va kasbiy o'sishga intilish	Til o'qitish bo'yicha o'zini baholash va tahlil qilish	Kasbiy portfel yuritish, o'ziga baho berish shakllari
4. Til o'rgatishda innovatsion texnologiyalarga ochiqlik	Zamonaviy vosita va texnologiyalarni sinovdan o'tkazish	Interaktiv ilovalar, SI vositalari, onlayn platformalarni sinab ko'rish
5. Mustaqil rejalashtirish va o'zini boshqarish ko'nikmasini rivojlantirish	Rejalashtirilgan refleksiv savollardan foydalanish	"Bugungi darsda til ko'nikmalarini qanday rivojlantirdim?" savoli orqali tahlil
6. O'qitish qarorlarini ongli ravishda qabul qilish	Faoliyat asosida tahlilga tayangan qarorlar	Darsda ishlatilgan metodlar samaradorligini yozma ko'rinishda baholash

**Chet tili o'qituvchisining kasbiy rivojlanishi** – bu ijtimoiy hayotdagi turli ta'sir vositalari, pedagogik faoliyat hamda shaxsning o'z faoliyati ta'siri ostida kasbiy jihatdan muhim fazilatlarini takomillashtirishning uzluksiz jarayoni hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim paradigmasiga muvofiq, chet tili o'qituvchisi doimiy ravishda shaxsiy rivojlanish darajasini kuzatib borishi va muvofiqlashtirishi, kasbiy faoliyati natijalarini nazorat ostida ushlashi kerak. Refleksivlik kompetensiyasini

<sup>10</sup>Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник. – М.: Логос, 2001. – 250 с.

kasbiy pedagogik faoliyatning tizimli tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish mumkin, bu esa rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirishni ta’minlaydigan, ta’lim va kasbiy faoliyatda ijodkorlikni rag‘batlantiradigan refleksiyaning eng samarali va adekvat amalga oshirishga imkon beradigan shaxsiy xususiyatlaridir. Refleksivlik kompetensiyasi subyektning psixologik fazilatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimlari: o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi nazorat qilishdir. S.V.Sidorov, A.G.Gavrilov<sup>11</sup>, I.N.Semenov, A.V.Xutorskiy, S.Yu.Stepanov va boshqalar o‘z ilmiy izlanishlarida refleksivlik kompetensiyalarining tarkibiy tahlilini o‘tkazadilar<sup>12</sup>. S.Yu.Stepanov o‘rganishning doimiy ravishda tizimli refleksiya asoslangan refleksivlik modelini ishlab chiqdi, bu esa tajribani sinchkovlik bilan qayta ko‘rib chiqish orqali ifodalanadi. Asosiy tamoyil shundan iboratki, subyektning mavjud vaziyatdagi tajribasi hech qanday vosita bo‘lib xizmat qila olmaydi yoki biron bir muammoga ijodiy yechim taklif qila olmaydi. Mavjud tajriba faqat shaxsiy qobiliyatlarni namoyon qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, hamda refleksiv jarayonni ta’minlaydi.

Ingliz tili o‘qituvchisining refleksivlik kompetensiyasi uning faoliyatiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishni, o‘zini uni modellashtirish, tashkil etish va o‘zgartirish subyektini sifatida ko‘rish qobiliyatini nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi pedagogik jarayonda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi, va o‘z o‘rnida talabaning o‘quv jarayonini optimallashtira oladi, uning kasbiy va shaxsiy o‘sishi uchun vaziyatni va uni hal qilish yo‘llarini har tomonlama ko‘ra oladi.

Bugungi ta’lim sharoitida aqliy faoliyat hamda ingliz tili mutaxassislarining ijodkorlik tashabbusi kasbiy faoliyat samaradorligi uchun muhimdir. O‘z kasbining ustalari keng ko‘lamli ko‘nikma va malakalarga, ya’nikim, maqsad va vazifalarni belgilash, tartibga solish va boshqarish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishlari kerak. Shu o‘rinda refleksiv bilimlar va kompetensiyalar ham shular qatoriga kiritilishi lozim. Ushbu muammoga V.Vasilyev nazari bilan qarasa, o‘qituvchilik kasbi eng refleksiv, va o‘qituvchining refleksiya professional refleksiyaning eng tipik turidir<sup>13</sup>.

Hozirgi paytda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish borasida muayyan qiyinchiliklar mavjud. Oliy ta’lim muassasalarida bu kompetensiyani shakllantirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv kurslari, metodik tavsiyalar va amaliy mashg‘ulotlar yetarlicha rivojlanmagan. O‘qitish jarayonida refleksiv metodlar yetarlicha qo‘llanilmayotgani natijasida talabalarning mustaqil fikrlashi va o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalari sust rivojlanmoqda. Buning oldini olish uchun o‘qitish jarayoniga muammoli ta’lim, interfaol mashg‘ulotlar, portfoliolar, refleksiv kundaliklar va o‘zaro fikr almashish kabi usullarni kengroq joriy etish zarur.

Talabalarda muammoli vaziyatlarni yechish, shuningdek, boshqalar bilan samarali hamkorlik qilish kabi murakkab ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat

---

<sup>11</sup> Сидоров С.В., Гаврилов А.Г. Теоретические предпосылки для проектирования рефлексивной компетентности // Мир наука, культура, образование. – 2010. – № 1. – С. 253-256.

<sup>12</sup> Семенов И.Н., С.Ю. Степанов Рефлексивная психология и педагогика творческого мышления – Запорожье : ЗГУ, 1992. – 192 с.

<sup>13</sup> Васильев В. Рефлексия – виды и механизмы ее реализации // В кн. : Книга о размышлении. – Пловдив: Университетское издательство Паисия Хилендарского, 2018. – С. 26–30.

qiluvchi maqsadlarga erishish uchun, ingliz tili o'qituvchilari zamonaviy o'quv dasturining mazmuniy qismlarini puxta rejalashtira oladigan va ularni amaliyotda samarali qo'llay oladigan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishlari lozim. Masalan, bu maqsadlarni aniq belgilashni, o'rganilishi kerak bo'lgan moddiy tarkibni va nimani istisno qilish kerakligini va uslubiy va baholash strategiyalarini o'z ichiga oladi. Buning uchun sinf amaliyotida refleksiv munosabat va odatlarini saqlab qolish juda muhimdir.

O'zbekistonning ta'lim tizimida refleksivlik kompetensiyalarni rivojlantirish, ayniqsa ingliz tili o'qituvchilari uchun, juda dolzarb, ammo shu bilan birga murakkab va ko'p qatlamli masaladir. Quyida bu jarayonning madaniy, pedagogik, tizimli xususiyatlari, hamda sharoit va muammolarini chuqurroq tahlil qilingan:

1. **Madaniy kontekstdagi o'ziga xosliklar** – hurmatga asoslangan vertikal muloqot – O'zbekiston ta'limida ustoz-shogird (o'qituvchi-talaba) munosabati ko'pincha an'anaviy vertikal modelga asoslanadi. Bu holatda chet tili o'qituvchisi ko'proq "biluvchi", talaba esa "eshituvchi" rovida bo'ladi, o'zini tanqid qilish (refleksivlik) o'rniga ko'proq tashqi baholovga e'tibor beriladi. Bu holatda muammo shundaki, chet tili o'qituvchisining o'z faoliyatini ochiq tanqid qilishi yoki baholashi madaniy jihatdan noqulay tuyilishi mumkin.

2. **Refleksiyaga bo'lgan tushuncha va metodik tayyorgarlik yetishmasligi** – refleksiya tushunchasining yuzaki qabul qilinishi – ko'plab o'qituvchilar uchun "refleksiya" faqat dars oxirida "bugun nima o'rgandik?" degan savol bilan cheklanadi. Bunday vaziyatda refleksivlik kompetensiyalari chuqur tahlil, o'z ustida ishlash, muammoga boshqacha yondashish demakligini anglash yetarli darajada shakllanmaganligi ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi, masalan, o'qituvchilar refleksiyani mustaqil o'quv strategiyasi sifatida emas, majburiy jarayon sifatida ko'radilar.

3. **Kasbiy rivojlanishdagi resurslar va imkoniyatlar cheklanganligi** – doimiy o'qitish va qayta tayyorlov dasturlarining sustligi. Ko'pgina o'qituvchilar refleksivlikni rivojlantirish bo'yicha maxsus treninglar, seminarlar yoki mentorlik dasturlarida qatnashmaydi, yoki bunday imkoniyatlar har doim ham mavjud emas. Muammo shundaki, refleksiv metodlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar kam, mavjud treninglar ko'proq nazariy yo'nalishda, amaliy yondashuv yetishmaydi.

4. **Baholash tizimidagi moslashuv yetishmasligi** – natijaga yo'naltirilgan (result-oriented) baholash – ko'pchilik o'quv muassasalarda baholash tizimi dars natijasiga (ball, test natijasi) asoslangan, lekin jarayon tahlili (proces-oriented reflection) kam e'tiborga olinadi. Bu esa o'qituvchi darsda qanday o'rgatgani emas, talaba nima natija ko'rsatganiga qarab baholanib qolish muammosini keltirib chiqaradi, bu refleksiv yondashuvni rag'batlantirmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirish O'zbekiston ta'lim tizimi uchun zarur, ayniqsa ingliz tili o'qituvchilari uchun bu – til o'rgatishdagi metodik yondashuvlar va shaxsiy rivojlanish o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Biroq madaniy qadriyatlar, tizimli yondashuvning yetishmasligi, metodik va texnologik tayyorgarlikning cheklanganligi, hamda fikr almashish madaniyatining sustligi bu kompetensiyani rivojlantirishda sezilarli to'siqlardir.

Dissertatsiyaning “*Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida reflektivlik kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni va metodikasi*” deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida reflektivlik kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida reflektivlik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida reflektivlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari haqida so‘z olib borilgan. Amaliyotni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dunyodagi oldindan mavjud bo‘lgan barcha chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash modellari, hamda zamonaviy o‘qitish usullari haqidagi professional dasturlar xilma-xil va moslashuvchan emas. Tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasida chet tillarini o‘qitishni rivojlantirishning davlat konsepsiyasini yo‘lga qo‘ya oladigan pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj bilan tavsiflanadi. Ammo chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash muammosi iste‘molchilarning real ehtiyojlarini hisobga oladigan kasbiy tayyorgarlik dasturlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Refleksiv yondashuv o‘qituvchining o‘rgatish faoliyatini avtomatik emas, balki ongli va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida idrok etishiga xizmat qiladi. Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish ta‘lim jarayoniga refleksiv metodlarni, jumladan, dars jurnallari yuritish, o‘z faoliyatini videoanaliz qilish, peer-feedback (o‘rtoqlik asosidagi tahlil), kasbiy portfel yaratish, darsdan so‘ng tahliliy suhbatlar o‘tkazish kabi faoliyatlarni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi<sup>14</sup>.

**Tanqidiy va metakognitiv fikrlash** (O‘z fikrini savol ostiga qo‘yish qobiliyati) – Mualliflik yondashuvi: til o‘qituvchisi – bu talabaning miyasiga til tizimini joylashtirishdan ko‘ra, uni fikrlashga, taqqoslashga, savol berishga undaydigan shaxsdir. Tanqidiy fikrlash dars jarayonida, metakognitiv fikrlash esa darsdan keyin paydo bo‘ladi. Biz “o‘z fikrimni sinovdan o‘tkazaman” tamoyilini asos sifatida ko‘ramiz.

**Metodlar:** “3 savol” usuli orqali darsni yakunlash (Nima o‘rgandim? Nima tushunarsiz? Nima o‘zgardi?). Talabalarga o‘z javoblarini baholash (Why do you think so? Can you explain differently?)

Quyida bir nechta reflektivlik kompetensiyasiga oid hayotiy misollar keltirilgan:

1. **O‘qituvchi misoli:** o‘qituvchi dars mobaynida sinfdagi ikki-uchta talaba zerikib, chalg‘ib o‘tirganini payqaydi. Darsdan keyin shunday fikr yuritadi: “Ehtimol, darsni faqat nazariy ma‘lumotlar asosida o‘tdim. Ertaga rolli o‘yin yoki guruhli muhokama kiritib ko‘raman”. – Bu o‘z amaliyotini tahlil qilish va uni takomillashtirishga intilish – reflektivlik kompetensiyasidir.

2. **Talaba misoli:** talaba imtihondan past baho oladi. U o‘zini oqlash yoki boshqalarni ayblash o‘rniga, shunday fikrlaydi: “Men materialni oxirgi daqiqada o‘rganishga harakat qildim, shuning uchun chuqur tushunmadim. Kelgusi safar reja tuzaman va har kuni oz-ozdan tayyorlanaman.” – Bu refleksiv yondashuv, ya‘ni o‘z xatolarini tan olish va kelajakda yaxshilanishga intilish.

Shu kabi refleksiv yondashuvlar insonning hayotiy, kasbiy va shaxsiy jihatdan o‘shishga kuchli turtki beradi.

---

<sup>14</sup> Jay J.K., Johnson K.L. Capturing complexity: A typology of reflective practice for teacher education // Teaching and Teacher Education. – 2002. – Vol. 18, № 1. – P. 73–85.

**Refleksivlik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodlari**

<b>Metod</b>	<b>mazmuni</b>	<b>foydasi</b>
1. Refleksiya kundaliklari yuritish	Har kuni yoki muhim voqealardan soʻng oʻz tajribangizni yozma ravishda tahlil qilish; Savollar asosida (masalan: “Nima boʻldi?”, “Nima oʻrganildi?”, “Kelasi safar qanday boʻladi?”) yozish.	Tanqidiy fikrlash va oʻzini anglash rivojlanadi.
2. “Maqsad – Amal – Natija” tahlili	Har bir faoliyat uchun: Maqsad nima edi? Qanday harakatlar qilindi? Natijasi qanday boʻldi? Nima oʻzgartirish mumkin edi?	Harakatlar va qarorlar tahlil qilinadi, oʻrganilgan saboqlar aniqlanadi.
3. Treninglar va simulyatsiyalar	Rolli oʻyinlar, muammoli vaziyatlar, “case-study” (holat tahlili) orqali refleksiya qilish; Guruhli mashgʻulotlar orqali oʻz fikrini baham koʻrish.	Ijtimoiy refleksiya, empatiya va kommunikativ kompetensiyalarni ham oshiradi.
